

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA OCHIQ DARSLARNING

O'RNI

(“Musiqa ta’limi” yo’nalishi misolida)

Eshboboyeva Diyora A’zam qizi

“Musiqa ta’limi” yo’nalishi 1-kurs 101-guruuh talabasi

Yuldashev Umidjon Yuldashevich

“Musiqa nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada musiqa ta’limi yo’nalishida olib boriladigan ochiq daralar, ularga qo’yiladigan talablar hamda ta’lim sifatini ta’minalashdagi o’rni va ahamiyati xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, ba’zi professor o’qituvchilarining ochiq darslaridan misollar keltirilgan bo’lib, ochiq darslarning ta’lim tizimidagi imkoniyatlari, kamchiliklari va avfzalliklari xususida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, me’yoriy hujjat, eksport guruhi, kommunikatsiya, ta’lim sifati, kurslar kesimi, ijtimoiy fanlar.

Hozirgi kunda, muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan barcha sohalarda ko’plab islohotlar olib borilyapti. Jumaladan, sport, musiqa, tibbiyat, adabiyot, ta’lim va h.k. Shu bilan birga ta’lim sohalarida bir qancha o’zgartirish kiritilib, yanada isloh qilinyapti. Ushbu islohotlar natijasi o’laroq, xorijiy tajribalar asosida takomillashtirilayotgan ta’lim sohasida sifat-samaradorlikga erishish hamda yurtimiz kelajagi bo’lgan biz yoshlarga qator qulaylik va imkoniyatlar berilishi taxsinga loyiqidir.

Oxirgi yillarda musiqa amaliyotida yangi yo’nalishlar paydo bo’layotganligi, ijro uslublari hamda cholg’u sozlari amaliyotining o’zgarishi talaba-yoshlarda ijodiy tafakkurining rivojlanishida birmuncha murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, ushbu holat bakalavrular badiiy-musiqiy didi shakllanishida ham o’z aksini qoldirayotganligi ma’lum. Bunda, OTM professor-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o'qituvchilari tomonidan tashkil qilinayotgan ochiq darslarning o'rni katta deb o'ylaymiz. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatini ta'minlashiga shubha yoq. [2. 43]

Ochiq darslar - talabalarining kurslar kesimi, bilish qobiliyati, o'qitiladigan fanlarning xususiyatlardan kelib chiqib, turli bosqichlarda turlicha olib borilmoqda. Maktabda boshlang'ich sinflarning ochiq darsi oliv o'quv yurtlarida o'tqaziladigan ochiq darslardan farq qiladi. Bunda, ayniqsa boshlang'ich sinflarning ochiq darslari, shuningdek, o'rta va yuqori sinflarda olib borilayotgan mashg'ulotlar qiziqarli va ko'rgazmali qurollarga boy bo'lsada, oliv ta'lim tizimida ma'ruza amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari shaklida maktab va kollejlarga nisbatan ayniqsa mutaxassislik fanlariga nisbatan chuqurroq yondashuv asosida bilim, ko'nikma va malakalar bilan to'ldirilishi, talaba-yoshlarni ayniqsa ilmiy yondashuvarlar asosida darslarni an'anaviy va zamonaviy metod-texnologiyalardan foydalanib olib borilishi talabalarining bilimlari mustahkamlanishiga hamda ularning yetuk mutasassis bo'lib shakllanishlariga zamin yaratadi.

Musiqiy ta'lim yo'nalishidagi ochiq darslarning aksariyati Madaniy-badiiy tadbirlar ko'rinishida olib boraladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlardan biri bo'lgan oshkorlik kichik va katta guruhlar, jamoalar faoliyatida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni taqozo etadi. Bunday mexanizmlar ichida eng muhimlaridan biri ijtimoiy-psixologik xushyoqish, empatiyaning paydo bo'lishidir. [6; 344.]

Fakultet professor-o'qituvchilaridan dotsent - Karimova Dildora Anvarovnaning "Xorijiy mamlakatlarda musiqa ta'limi tizimi" mavzusidagi ma'ruza darsi, dotsent, PhD - Yuldashev Umidjon Yuldashevichning "Intervallar. Tabiiy major va tabiiy minor intervallari. Garmonik major va garmonik minor intervallari" mavzusidagi ma'ruza darsi, dotsent, PhD - Rejametova Nilufar Ilxamovnaning "XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiyada bolalar musiqasining rivojlanishi" mavzusidagi ma'ruza darsi, o'qituvchi - Shukurova Nilufar G'ayratovnaning "P.I.Chaykovskiy ijodi" mavzusida seminar darsi, Katta o'qituvchi - Rahmatova Nargiza Dalibayevnaning Raxmonberdiyeva

Ta'limning zamонавиy трансформатсиyаси

Surayyo Mirganiyevnaning “2-sinfda musiqa o`qitishning vazifalari va mazmuni” mavzusidagi seminar darsi, dotsent - Raximov Shavkat Shormatovichning “Sharob-1” mavzusidagi amaliy darsi, dotsent, p.f.n. - Trigulova Adelya Xusainovnaning “Gustav Maler hayoti va ijodi” mavzusidagi amaliy darslari bunga misol bo’la oladi.

Ba’zi bir OTMdа о’tkaziladigan ochiq darslarning sifatiga e‘tibor qaratsak, uni ba‘zida ochiq dars deyishimiz biroz noto‘g‘ridek tuyuladi. Ya‘ni, unda 2 nafar boshqa fan o‘qituvchisi (ular ham dars o‘rtasida darsni tark etishi) ishtirok etishi, ba’zan esa 4 nafardan oshmagan fakultet jamoasi ishtirok etadi xolos.

Mening nazarimda ochiq darsga nafaqat o’sha kafedra professor-o‘qituvchilari, balki boshqa turdosh OTMlardan ekspert guruhlарidan iborat professor-o‘qituvchilar va talabalar ishtirok etishlari kerak. Savol tug‘iladi? Farzandining o‘quv shartnomasiga pul to‘lab o‘qitayotgan ota-onalar uning qaysi o‘qituvchidan qay tarzda bilib olayotgani qiziq emasmi? Qiziq albatta. O‘ylaymanki, oliy ta‘limda olib borilayotgan ochiq darslarda farzandining bilim olishiga befarq bo‘lmagan ota-onalarni ham taklif qilish maqsadga muvofiq.

Musiqa darslari boshqa ijtimoiy fanlar mashg’ulotlaridan farq qilishi lozim. Demoqchimizki, o‘qituvchining o‘quv-me’yoriy xujjatlari tayyor bo’lishi:

- Tashkiliy qismning to’g’ri o’tkazilganligi,
- rejadagi masalalarning qamrab olinganlik darajasi
- pedagog tomonidan qo‘yilgan maqsadga erishish,
- axborot–kommunikatsiya texnologiyalari, ko’rgazma materiallar va jihozlar bilan ta’minlanganligi,
- talaabalar diqqatini mavzuga qaratilishi,
- dars maqsadlari, dars rejasi, mavzuni hayot bilan bog’langanligi va zamon talablariga mosligi,
- mavzuni amaliyot bilan bog’laganligi,
- talabalar tayanch bilimlarini takomillashtirishda qo’llaniladigan usullar va ularning faolligi,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- mashg'ulotda fanni ilmiy-nazariy jihatdan egallaganligi va uni talabalarga yetkazib bera olganligi,

- amaliy, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlarida xorijiy tajribalarni qo'llash va samarali natija olish orqali ta'lim sifatini oshirishiga shubha yo'qdir.

Dars so'ngida, o'tilgan mashg'ulot yuzasidan takliflar; pedagog xodimning yutuqlari va mashg'ulotning kamchiliklarini ta'kidlab o'tishlari keyingi darslarning sifatini ta'minlashga yordam beradi.

Oliy ta'lim tizimida musiqa o'qituvchisining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga asos bo'ladiga bilim, ko'nikma va malakalar majmuasida ta'kidlanganidek o'qitishning turli texnik ditaktik, audio, vedio, multimedia, onlayn, prezintatsiya vositalari, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi ularning bir biridan farqi va avfzalliklarini bilishi nazarda tutilgan. [5; 52.]

Xulosa o'rnilida ta'limning sifatini yaxshilashda ochiq darslarga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar amaldagi joriy darslarning sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Buning uchun ustozlar ochiq darslarni an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolmagan holda, yangicha metod va o'quv ishlanmalar bilan tashkil etishlari muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.T. "O'zbekiston" 2017 yil.
2. Hasanov A.. Musiqa va tarbiya. Toshkent. 1983 yil.
3. Ibrohimov O. va boshqalar "Musiqa" 4-sinf uchun darslik.- Toshkent: "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2007-yil.
4. Munavvarov A.Q. "Pedagogika" darslik. O'qituvchi nashriyoti T. 1996 y
5. Юлдошев, У. Ю. (2019). Мусиқа уқитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. Современное образование (Узбекистан), (9 (82)), 47-53.
6. Yuldashev, U. (2023). EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH CULTURAL AND ARTISTIC EVENTS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 342-345.